



## Dutor Malikasi

Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti. “Maqom cholg’u ijrochiligi kafedrası” Magistratura bo‘limi 2-bosqichi talabasi Samatova Dildora Toxir qizi Ilmiy rahbar:Dotsent Arabov Ilyos Ismatovich.

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada dutor cholg’usining mohir sozandasiga, o‘z ijro uslubiga va yo‘nalishiga ega ustoz sozanda Malika Ziyoyevaning ijodiy yo‘li va dutor ijrochiligidagi erishgan ilmiy-ijodiy yutuqlari, shuningdek ijodiy maktabi orqali kelajak avlodga qoldirayotgan ilmiy merosi haqida so‘z boradi.

**Аннотация:** В данной научной статье рассказывается об искусном музыканте, о мастере со своим исполнительским стилем и направлением в игре на дутаре, о научном и творческом пути и достижениях Малики Зиёвой, а также про её научное наследие, которое она оставляет будущему поколению через свою творческую школу.

**Anotation:** This scientific article talks about the creative path of Malika Ziyoyeva, a skilled musician of the dutor instrument, a master musician with her own performance style and direction, and the scientific and creative achievements she has achieved in the performance of the dutor, as well as the scientific legacy she leaves to the future generation through her creative school.

**Kalit so‘zlar:** mohir sozanda, ilmiy-ijodiy meros, ijodiy maktab, buyuk darg’alar, ijro maktabi, professional dutorchilar ansamblı.

Musiqa inson qalbiga, ongiga ta’sir etuvchi, inson ma’naviyatini rango-rang nurlar ilo to’ldiruvchi vositadir. San’at bir gulzor desak, musiqani shu gulzorning hushbo’y guliga qiyoslash mumkin. Inson gul hididan rohatlansa, musiqani tinglaganda ruhi taskin topadi. San’atda shunday gulbog’lariga ega nomdor ustozlar o‘z ijodiy-ijroviy maktablarini yaratib ketdilar. Ular yaratgan ijod maktablari hanuzgacha avloddan-avlodga o’tib, vaqt o’tgani sayin yanada sayqallashib kelmoqda. O’tmisht ustoz sozanda, xonanda va bastakorlarining bizga qoldirgan merosi ulkan va boydir. Ushbu ilmiy-ijodiy meros boyishida beminnat hissasini qo’shgan ustozlardan Samarqandlik ustoz sozanda, xonanda va bastakor Hoji



Abdulaziz Abdurasulov, Orif Qosimov, Mahmud Yunusov (tarasha), Nurmuhammad Boltayev, Zohidjon Obidov, G'ulomjon Qo'chqorov, Turg'un Alimatov, Faxriddin Sodiqov va Abdurahim Hamidov kabi ustozlarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Bu ijodkorlarning bizga qoldirgan ijodiy maktabi katta ahamiyatga egadir.

Shunday o'z ijod va ijro yo'liga ega ustoz san'atkordan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Professor, dutor cholg'usining mohir sozandası Malika Ziyoyevadır.

Ustoz Malika Ziyoyeva 1956-yil 1-fevralda Farg'ona viloyati farg'ona tumanida ishchi oilasida tug'ulgan. Otasi Xolmirzayev Bekmirza Xolmirzayevich 1927-yilda Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida tavallud topgan. Ustoz san'atkorning otasi ziyoli inson bo'lган, shu sababli ko'p yillar Farg'ona tumani jamoa xo'jaligi raisi lavozimida faoliyat olib borgan. Afsuski, 1958-yili farzandi Malikaxon 2 yoshligida vafot etgan.

Onasi Xusenxo'jayeva Xamroxon 1930-yil O'sh viloyatida tavallud topgan. Turmush o'rtog'idan juda erta ayrilgan Xamroxon aya 4 nafar farzandini yolg'iz voyaga yetkazgan. Ularni yaxwi sharoitlarda o'stirib, o'qitish maqsadida ko'p yillar Farg'ona Shahar yog' zavodida ishchi lavozimida ishlagan. Shu bilan bir qatorda farzandlari Malikaxon va Saidmirzolarni Farg'ona viloyati Farg'ona shahrida Vladimir il'ich lenin nomidagi 1-maktab internatida ta'lim olishlari uchun sharoit yaratib bergen.

Ustoz Malika Ziyoyeva<sup>36</sup> Yoshligidan juda chiroyli raqsga tushgan, rubob chalib ashulalar xirgoyi qilgan. Musiqaga mehri va e'tibori baland bo'lgani sababli, 1969-yil Farg'ona musiqa bilim yurtiga dutor sinfiga o'qishga qabul qilindi. Dutor cholg'usida boshlang'ich ta'limni Kimsanxon Ahmedovadan oladi". Ushbu musiqa dargohida o'zlashtirgan bilimlari sababli Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida o'qish uchun yo'llanmani qo'lga kiritadi. Konservatoriyaning "Sharq musiqasi" kafedrasida O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan san'at arbobi, ustoz sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqovdan saboq oladi. Malika Ziyoyevaning eng katta yutug'i ham shunda bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ustoz Faxriddin Sodiqov nihoyatda talabchanlik bilan o'zbek xalq kuylaridan namunalar o'rgata boshlagan. Birinchi bo'lib

<sup>36</sup>F. Ziyoyeva, "Ustoz sozanda Malika Ziyoyeva"// Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining 60 yillik ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan Maqolalar To'plami. Toshkent-2019. (149-b)



ustozdan “Fabrika” kuyini o‘rganadi. Ustozning ijro maktabi nihoyatda murakkab va dutor imkoniyatlarini yaqqol ko’rsata oladigan yana ko’plab kuy ashulalarni o’rgatgan. Malika Ziyoyeva Faxriddin Sodiqovdan 2 yil davomida ta’lim olib, ustozning dutor ijrochilik yo‘lini puxta o‘rgandi va shashmaqom tarkibidagi ko’plab kuy va ashulalarni shu yo‘nalishda ijro qildi. Ustozining vafotidan so‘ng Malika Ziyoyeva bir necha yil shu yo‘nalish ustida o‘zi mustaqil izlanib, talabaligining so‘nggi yilida Abduraxim Hamidov qo‘lida Toshkent davlat konservatoriyasini muvaffaqiyatli tamomlagan.

Faxriddin Sodiqovdan olgan saboqlarining hech biri besamar ketmagan holda yo‘llanma asosida O‘zbekiston teleradio kompaniyasi huzuridagi Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambliga dutorchi-sozanda sifatida ishga qabul qilindi. Bu haqida Malika Ziyoyevaning o‘zi quyidagicha so‘zlab berdi:<sup>37</sup> “O‘zbekiston teleradio kompaniyasining 1-binosa maqom ansambli faoliyat yuritar edi. Ustozlar bilan tanishish maqsadida maqom ansambliga bordim. Hamma maqom san’atining buyuk darg’alari usha yerga to’plangan edi. Usha vaqtarda maqom ansamblining rahbari Orifali Mahsumov edilar. Birinchi ish kunida katta shijoat va hayajon bilan ustoz Faxriddin Sodiqovdan o‘rgangan o‘zbek xalq kuyi “Shafoat” ni ijro qildim. Orif Qosimov, Turg‘un Alimatov, Berta Dovidova, Ochilxon Otaxonov, Abduhoshim Ismoilov va yana ko’plab buyuk san’atkorlardan iborat jamoa bor edi. Ijroyimni tinglaganlaridan so‘ng birinchilardan bo‘lib ustoz sozanda Turg‘un Alimatov “Faxriddin akaning ijro yo‘li bo‘libdi” deb ta’rifladilar. Bu mening ijroyimga berilgan eng yuksak ta’rif edi. Qolgan ustozlar ham bu ta’rifni to‘g’ri deb baholagan holda” haqiqatdan ham Fahriddinxonni dutor ijrochilik yo‘li bo‘libdi” dedilar. Berilgan bu ta’riflardan nihoyatda boshim osmonga yetgan edi. Shu tariqa maqom ansamblida ish faoliyatimni boshladim”. Ustoz Malika Ziyoyeva ansamblidagi sozandalik faoliyati davrida juda ham katta maqom san’ati darg’alari bilan birgalikda faoliyat olib bordi. Ular bilan bitta sahnada uzoq yillar ijro qildi. Bular Orif Qosimov, Berta Dovidova, Komuna Ismoilova, Malohat Dadaboyeva, Eson Lutfullayev, Ismoil Vahobov, Isroil Vahobov, Abduhoshim Ismoilov, Orifali Mahsumov, Orifxon Hotamov, Ochilxon Otaxonovlar va maqom ansamblining yetakchi ijrochilaridan Is’hoq Kattayev va Izro Malakovlar shuningdek, ansamblining yosh ijrochilaridan Matluba Dadaboyeva, Mahbuba Hasanova, Nasiba Sattorova, Gulbahor

<sup>37</sup> Malika Ziyoyeva bilan bo‘lgan suxbatdan.



Erqulova kabi san'atkorlar bilan ishladi. Bundan tashqari ansamblning yosh xonandasiga Komila Aminova bilan ijodiy hamkorlik qilib, ilk bor televediniyada Saida Zununova so‘zi bilan “O‘ttimu” ashulasini yakka dutorda ijro qilishgan. Bu ko‘rsatuvda ustoz Turg‘un Alimatov ham qatnashib, bu ijroga guvoh bo‘ldi. Bunday talqindagi ijroni tinglagan ustoz sozanda Turg‘un Alimatov Malika Ziyoyevaga murojaat qilib, bu ijro unga juda ham maql kelganligini aytadi va bunday yakka dutor jo‘rligidagi ashulalarni ko‘paytirish kerak deb maslahat beradi. Bu so‘zlardan ilhomlanib ikki ijrochi Malika Ziyoyeva va Komila Aminova radioda ma’lum vaqt mobaynida yakka dutor jo‘rligida o‘n oltita ashula yozdirishadi. Ushbu yozuvlar hozirda yetishib kelayotgan yosh, umidli talaba ijrochilar tomonidan o‘rganilib ijro qilib kelinayabdi.

Malika ziyoyeva maqom ansamblida ishslash jarayonida maqomlarimizdagi murakkab asarlarni o‘rgandi, ularning mazmun mohiyatini his qilib ijro qildi. Abduhoshim Ismoilov rahbarligida maqomlarimiz oltin fondga yozilish jarayonlarida faol sozandalar qatorida yelkama-yelka mehnat qildi. Bu mehnatlari natijasida qo‘li dutordan ayrılmadi va ijro mahorati kundan-kun o‘sib bordi. Uning ijro mahoratini kuzatib bunga yaqqol guvoh bo‘lib kelgan O‘zbekiston xaql artisti Shavkat Mirzayev 1978-yildan boshlab ustozlik qilib keladigan shogirdi O‘zbekiston xalq artisti Munojat Yo‘lchiyeva bilan Malika Ziyoyevani yakka dutor jo‘rligida asarlar ijro qildirib radioning fondiga yozdiradi. Bu qilingan yozuvlar Malika Ziyoyevaga xorijdagi ijodiy safarlar uchun eshiklarni ochdi va shu tariqa 1990-yildan boshlab Shavkat Mirzayev rahbarligidagi ijodiy jamoa Yevropaning qator davlatlarida konsertlar namoyish etdilar. Bu haqda Shavkat Mirzayev o‘z xotiralarida shunday degan edi, <sup>38</sup>“Dunyoda bormagan joyimiz qolmadidi. Fransiyaning o‘zida 48 marta bo‘libmiz. Konsertlarimiz doimo olqishlar bilan kutib olindi. Biz haqimizda hujjatli filmlar olishdi. Musiqa albomlarimiz chiqdi”. Malika Ziyoyeva ham bu konsertlarda faol ishtirok etib o‘zbek kuy ohanglarini butun dunyoga tanitishda sitqi dildan mehnat qildi. Maqom ansamblida olib borgan tinimsiz ijodiy faoliyati natijasida 1987-yilda “Kumush plastinka” bilan taqdirlandi va 2002-yilda davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvoniga sazovor bo‘ldi”.

<sup>38</sup>

[https://www.bbc.com/uzbek/interactivity/2011/08/110830\\_latin\\_talkingpoint\\_shavkat\\_mirzaev](https://www.bbc.com/uzbek/interactivity/2011/08/110830_latin_talkingpoint_shavkat_mirzaev)



1992-yildan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “An’anaviy ijrochilik” kafedrasida pedagogik faoliyatini boshladi. Qisqa vaqt ichida Faxriddin Sodiqov ijro uslubini qanchadan-qancha shogirdlariga singdira oldi. 2005-yilda ushbu ijodiy maktabni yanada shakllantirish maqsadida konservatoriyada tahsil olayotgan shogirdlaridan iborat “Shukrona” professional dutorchilar ansamblini tashkil qildi. Dastlab ansamblida 5 nafar talaba bor edi. Hozirda esa bu ijrochilar butun respublikaga tarqalib, ularning soni 100 dan ortiq va har biri Malika Ziyoyeva maktabida tahsil ko‘rgan ijrochilardir. Malika Ziyoyeva ustozи Fahriddin Sodiqovga bo‘lgan mehri va sadoqati kuchliligi sabab u qoldirgan dutor ijrochilik uslubini mahkam ushladi va uni maktab darajasiga yetqizish uchun astoydil kurashdi. Ushbu maktabda tahsil ko‘rgan har qanday shogirdi qaysi dargohga bormasin shu ijrochilik an’anasi rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shayabdi.

Konservatoriyadagi pedagogik faoliyati orqali Malika Ziyoyeva ilmiy faoliyatini ham boshladi. Fahriddin Sodiqovdan o‘rgangan kuylarini va o‘zbek maqomlaridan ayrim namunalarni dutorga moslashtirib notaga tushirdi. 2011-yilda barcha nota to‘plamlarini kitob holiga keltirib, “Dutor- Fahriddin Sodiqov ijro uslubi” nomi bilan kitob nashr qilindi. Bu kitob hozirgi vatqda qimmatli qo‘llanma bo‘lib, nafaqat magistr va bakalavr talabalari uchun balki iqtidorli bolalar musiqa va san’at litseylari, san’at kolleji va musiqa mifik o‘quvchilari uchun ham juda qimmatlidir.

2019-yilda ustoz Malika Ziyoyevaning yana bir to‘plami nashr qilindi. Ushbu to‘plama Shashmaqomdan o‘rin olgan namunalar bo‘lib, ularning barchasi dutor imkoniyatlariga moslashtirilgan.

Uning shogirdlari turli xalqaro va Respublika tanlovlarda qatnashib, sovrinli o‘rnlarni olib kelmoqdalar. Malika Ziyoyevaning sevimli shogirdlaridan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Ilyos Arabov, Yunus Rajabiy nomidagi musiqa san’ati institutining “Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrasasi katta o‘qituvchisi Farangiz Mahmudova. Bekzod Safarov Shuningdek, Yunus Rajabiy nomidagi yosh maqomchilar ko‘rik tanlovi 1-o‘rin sohibasi Abdurashidova Dilrabo, A’zamova Dilnavoz, Samatova Dildora, Yandasheva Maftuna, Ataboyeva Dastagul, Iskandarova Yulduz, Sulaymonova Navbahor, Sulaymonova Marjona va yana yuzlab shogirdlari uning ishini davom ettirib kelmoqdalar.



Hozirgi vaqtda ham Malika Ziyoyeva ustozni Faxriddin Sodiqovning ijodiy yo‘lini davom ettirgan holda, Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati institutida professor lavozimida talabalarga saboq berib kelmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.F. Ziyoyeva, “Ustoz sozanda Malika Ziyoyeva”// Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining 60 yillik ijodiy faoliyatiga bag’ishlangan Maqolalar To’plami. Toshkent-2019.
- 2.[https://www.bbc.com/uzbek/interactivity/2011/08/110830\\_latin\\_talkingpoint\\_shavkat\\_mirzaev](https://www.bbc.com/uzbek/interactivity/2011/08/110830_latin_talkingpoint_shavkat_mirzaev)
3. Malika Ziyoyeva bilan bo‘lgan suxbatlardan foydalanildi.
4. Malika Ziyoyeva. “Dutor” Faxriddin Sodiqov ijro uslubi. “Musiqa” nashriyoti Toshkent 2011.